

**TOSHKENT DAVLAT STOMATOLOGIYA INSTITUTI  
№8 SONLI KENGASH BAYONNOMA QARORI**

Toshkent sh.

1 may 2024 yil

Rais – professor N.Q.Xaydarov  
Kotib – professor A.A.Yuldashev

Institut Kengashi raisi, professor N.Q.Xaydarov quyidagi kun tartibi asosida Kengash majlisini ochdi:

**Kun tartibi:**

1. Talabalarni turar-joy bilan ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar, mavjud muammolar va istiqbol rejalarini

**Ma'ruzachi:** Talabalarni turar-joy bilan ta'minlash ishlarini muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i PhD M.K.Yunusxodjayeva

2. Bitiruvchi talabalar monitoringi

**Ma'ruzachi:** Marketing va talabalar amaliyoti bo'limi boshlig'i A.M.Maxmudov

3. Institut xotin-qizlar kengashining faoliyati

**Ma'ruzachi:** Institut xotin-qizlar kengashi raisi t.f.n., dotsent F.Ä.Shaamuhamedova

4. Institut kasaba uyushmasi faoliyati

**Ma'ruzachi:** Kasaba uyushma raisi t.f.n., dotsent A.Xasanov

5. Professor o'qituvchilarini tanlov asosida saylash.

6. O'quv-uslubiy ishlarni tasdiqlash.

7. Turli masalalar

**Ko'rib chiqilgan kun tartibidagi ikkinchi masala:** Bitiruvchi talabalar monitoringi

**Ma'ruzachi:** Marketing va talabalar amaliyoti bo'limi boshlig'i A.M.Maxmudov

**QAROR QILINDI:**

1. Har yili sentyabr-dekabr oylarida fakultet dekanlari tomonidan bitiruvchi kurs talabalar ro'yxati o'z vaqtida bo'limga taqdim etilsin va bitiruvchilarini bo'limga o'z vaqtida kelib uchrashishlari ta'minlab berilsin;

**Mas'ul – Marketing va talabalar amaliyoti bo'limi boshlig'i va barcha fakultet dekanlari**  
**Muddat – har o'quv yili sentyabr-dekabr oyi**

2. Har o'quv yili yakunida hududiy sog'liqni saqlash boshqarmalarining vakillarini jaib qilgan holda o'tkaziladigan "Taqsimot komissiyasi"da fakultet dekanlari tomonidan davlat granti asosida tahsil olayotgan bitiruvchilarini to'liq ishtirok etishlari ta'minlab berilsin

**Mas'ul – Marketing va talabalar amaliyoti bo'limi boshlig'i va barcha fakultet dekanlari**  
**Muddat – doimiy yil yakunida**

3. Yakuniy bandlik (ishga joylashish) monitoring o'tkazishda ishchi guruh tarkibiga kafedralardan jalb qilingan xodimlar monitoring olib borish jarayonida faol ishtirok etishlari va mas'uliyat bilan yondashishlari kafedra mudirlari tomonidan ta'minlab berilsin

**Mas'ul – Marketing va talabalar amaliyoti bo'limi boshlig'i, barcha fakultet dekanlari va kafedra mudirlari  
Muddat – doimiy**

Qaror ovozga qo'yildi va bir ovozdan qabul qilindi.

**Ko'rib chiqilgan kun tartibidagi beshinchi masala:** O'quv-yaslubiy ishlarni tasdiqlash

1. Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha Ekspertlar hay'atining o'quv-uslubiy bo'lim va komissiyalari tomonidan ijobiy xulosa berilgan oliy ta'lim muassasalari uchun yaratilgan o'quv adabiyotlari nashr etishga tavsiya etilsin

**Mas'ul – O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i, Toshkent davlat stomatologiya instituti o'quv adabiyotlarini ekspertizadan o'tkazish bo'yicha ekspert hay'ati raisi  
Muddat – 3 kun mu'datda**

Qaror ovozga qo'yildi va bir ovozdan qabul qilindi.

Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish O'quv ishlari bo'yicha prorektor S.R.Baymakov zimmasiga yuklatilsin.

Institut Kengashi raisi

N.K.Xaydarov

